

DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI**Xalilova Nigora Adxamovna***23-32 guruhi “Loyiha boshqaruv” fakulteti**Bank Moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat xaridlar tizimini takomillashtirish sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ushbu tizimning davlat budjeti mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanishdagi o'рни, shuningdek, mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat xaridlari, maxsus axborot portali, xarid qilish tartib-taomili, budjet, davlat budjeti.*

KIRISH

O'zbekistonda, ayniqsa so'nggi yillarda davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, raqamlashtirish borasida keng qamroqli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo'l ochib berish” muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu borada faoliyat samaradorligi va shaffofligini oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xaridlar ko'lamini kengaytirish, davlat xaridlari tizimida foydalaniladigan me'yoriy hujjatlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, davlat xaridlarini bekor qilish sabablarini e'lon qilib borish borasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda davlat xaridi hajmi YAIMning 11 foizini tashkil etgani holda uning iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Davlat xaridi YAIM shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo'nalish hisoblanadi: davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish; davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasida amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring qilish va baholashni tadbiriq etish.

G.Qosimovanning fikricha, davlat xaridiga e'tibor uning ahamiyatidan kelib chiqadi. Birinchidan, davlat xaridi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega davlat sektori faoliyati uchun zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turadi. Ikkinchidan, davlat budjeti xarajatlarning katta qismini tashkil etuvchi davlat xaridi uning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning

uchun davlat xaridi miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhimdir. Uchinchidan, davlat xaridi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda foydalaniluvchi kuchli vosita ekanligi qayd etib o'tiladi.

Davlat xaridi davlat ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir.

Davlat xaridini boshqarishga tizimli yondashuv maqsadga muvofiq. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilishni rejalashtirish, elektron savdolarida raqobat muhiti shaffofligini ta'minlagan holda amalga oshirish jarayoni davlat xaridi tizimini yuzaga keltiradi.

Standart turdagi davlat xaridlari mezonlari raqobatga asoslangan mexanizmni shakllantirishi nazarda tutilmoqda. Mazkur holatda ma'lum bir tovar (ish, xizmat)lar guruhiga ustunlik berilmaydi. «Murakkab» mezonlar asosida tanlab olinishi nazarda tutilgan ma'lum bir guruh tovar (ish, xizmat)larga ustunlik uchun imtiyozlar berilishi mumkin. Xususiy mezonlar asosida to'g'ridan-to'g'ri xarid qilinishi yoki biror yetkazib beruvchiga hujjat asosida alohida ustunlik beriladi.

Albatta ikki tomonlama munosabatlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshadi. Kelishuv ma'lum shartlar asosida tomonlarning huquq va majburiyatlarni aks ettirgan holda yuzaga keladi. Bu esa, shartnoma munosabatlari vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bu borada, shartnomalar nazariyasi muhim o'rin tutadi.

Bengt Xolmstryom o'z nazariyasida shartnoma tuzishning tamoyillariga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, axborot tamoyili o'zaro moliyaviy manfaatdorlik va boshqa xususiyatlarning uyg'un munosabatda bo'lishini qayd etadi. Masalan, xodim bilan tuzilgan shartnomada ish haqidan boshqa rag'batlantiruvchi shartlar ham mavjud bo'lishini e'tiborga oladi. Shuningdek, Oliver Xart shartnomalar nazariyasida «ijro etilmagan shartnomalar» g'oyasi bilan fundamental asoslarning yangi yo'nalishini belgilab bergan.

Mazkur nazariya fanga olib kirilishi bilan tomonlarning shartnomani boshqarish huquqlarini taqsimlab berish imkonini bergan. Bu esa, biznesni boshqarish ustuvorliklarini ta'minlash bilan birga, nafaqat iqtisodiyotning ko'plab sohalariga, balki siyosiy fanlar va huquqqa ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Zamonaviy iqtisodiyotda ko'plab shartnomalar mavjud. Xart va Xolmstryom tomonidan ishlab chiqilgan yangi nazariy instrumentlar haqiqiy shartnoma va institutlar, shuningdek, shartnomalar tuzishda potensial muammolarni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, davlat xaridlarini tartibga solishda shartnoma munosabatlari muhim o'ringa ega. Bunda davlat buyurtmachisi sifatida budjetdan mablag' oluvchi, yetkazib beruvi sifatida biznes sub'ektlari o'zaro munosabatlarga kirishadi. Davlat budjeti mablag'lari rentabelligini oshirish uchun

buyurtmachilarning arzon narx va sifat jihatidan talablarini shakllantirish, boshqa jihatdan yetkazib beruvchilar huquqlarini ta'minlash shartnoma qoidalarida o'z aksini topishi lozim. Bu esa, ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish imkonini beradi. Davlat xaridini rejalashtirishdagi mavjud muammolarning sabablari quyidagilardan iborat:

budget jarayoni takomillashmaganligi – budgetni shakllantirish faqat bir yil chegarasida bo'lib, unda o'tgan yil budgetida ko'zda tutilgan va tugallanmagan loyihalarni moliyalashtirish majburiyati ko'rsatilmaydi;

davlat xaridlarini rejalashtirilgan davr bilan xaridni amalga oshirish davri o'rtasidagi muddatning bir kalendar yiliga farq qilishi natijasida narx bilan bog'liq murakkabliklar yuzaga keladi;

davlat budgetini shakllantirishning uslubiy asoslari yetarli darajada takomillashmaganligi, ya'ni daromad va xarajat moddalarini rejalashtirishda o'zaro mustaqillikning past darajada ekanligi.

Tadqiqotlarga asoslanib ta'kidlash mumkinki, budget xarajatlari doirasida davlat xaridlarini rejalashtirish jarayonida ehtiyoj mavjud bo'lgan tovar (ish, xizmat)ning kelgusida bo'lish ehtimoliga ega bozor qiymatini aniqlash mexanizmini aks ettirgan ma'lumotlarning elektron dasturini joriy etish maqsadga muvofiq.

Elektron davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillariga ko'ra, yetkazib beruvchi hisob-kitob-kliring palatasiga buyurtma qiymatining ma'lum foizi miqdorida avans to'lovi orqali elektron savdolarida qatnashadi. Umuman, elektron davlat xaridlarida ishtirok etishning umumiy shartlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

□ ishtirokchi (korporativ buyurtmachi va yetkazib beruvchi, budget buyurtmachilari mazkur to'lovni to'lashdan ozod etilgan) HKKP (hisob-kitob-kliring palatasi)ga buyurtmaning qiymatiga nisbatan 3 foiz (elektron do'kon va auksion uchun) avans to'lovini amalga oshirish;

□ buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo (ERI)dan foydalanish, elektron tizimda tuziluvchi shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos hisoblanadi.

Elektron savdolarini tashkil etish jarayonini qisman o'rganib chiqqan. Ta'kidlash lozimki, avans to'lovlari shartnoma majburiyatlari bajarilganda yoki yangi taklif g'olib bo'lganda korporativ buyurtmachi va yetkazib beruvchiga qaytariladi. Aytish mumkinki, elektron xaridlar faqatgina elektron do'kon va auksionda amalga oshiriladi. Elektron xaridlar maxsus axborot portali orqali amalga oshiriladi. Bu portal <https://dxarid.uzex.uz/uz> saytida joylashtirilgan bo'lib, unda ERlga bo'lgan davlat xaridi ishtirokchilari talab va taklif doirasida faoliyatni amalga oshirishlari mumkin. Mazkur saytning boshlang'ich ko'rinishida tovarning lot (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko'ra) bir xil raqami, savdoning tugash vaqti, buyurtmachi joylashgan hudud, tuman, buyurtmaning nomi, boshlang'ich qiymat va real vaqt rejimida eng yaxshi taklif to'g'risida ma'lumot aks etadi.

Qayd etish kerakki, buyurtmachining barcha ma'lumotlari mazkur axborot portalida savdo boshlangan paytda aniq ko'rinib turadi. Lekin takliflarni amalga oshiruvchi(yetkazib beruvchi)ning ma'lumotlari aks etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, maxsus axborot portaliga auksion uchun joylashtirilgan e'lonlarda har bir lot tovar uchun shakllantirilgan narxlar bozor narxidan ancha farq qilishi yoki tovarning hajm(o'lcham)iga qo'yilgan talablar umumiy standartlardan farq qilishini kuzatish mumkin. Masalan, «DVP» (Drevesnovoloknistaya plita) to'g'risidagi texnik ma'lumotlar standart bo'yicha 2,75x1,7 m² yuzasi va qalinligi 3 yoki 4 mm bo'lib, og'irligi mos ravishda 12 va 16 kg bo'lishi aniqlandi.

Davlat xaridlari bo'yicha e'lonlar maxsus axborot portaliga joylashtirilsa, quyidagi omillarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

tovar (ish, xizmat)ning ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan savdo predmetining texnik pasporti asosida lotlar shakllantirilishini belgilash yoki tovar(ish, xizmat)lar lotlarini shakllantirishda davlat standartlari yordamida e'longa berish mexanizmini belgilash;

savdo predmeti uchun narxlarni belgilashda bozor bahosi bilan avtomatik qiyoslash va aniqlashning real vaqt rejimida ishlovchi dasturiy mahsulotni yaratish.

Auksion o'tkazishda belgilangan eng yuqori summa qiymatini oshirish orqali tanlov asosida o'tkaziladigan xaridlar miqdorini kamaytirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi holatlarni joriy etish, birinchidan, budget buyurtmachisi tomonidan xarajatlar smetasi bo'yicha bir turdagi tovarlar ikki (yoki undan ortiq) shartnoma bo'yicha xarid qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Ikkinchidan, budget buyurtmachisi tomonidan narxlarni manipulyatsiya qilishga imkon berilmaydi, uchinchidan, budget xarajatlarning manzilliligini ta'minlash orqali samaradorlikka erishiladi.

Yevropa Ittifoqida ilg'or davlat xaridlari tizimi amal qiladi va quyidagi yo'nalishlarning afzalliklaridan foydalaniladi:

1. elektron vositalardan keng foydalanish;
2. kichik va o'rta biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash;
3. tovarlarning to'liq hayotiylik davri hisobi;
4. ijtimoiy mehnat munosabatlarini qo'llash;
5. ekologik talablarga rioya qilish;
6. korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik;
7. xarid ishtirokchilariga rasmiy talablarni kamaytirish;
8. nazoratning moslashuvchan me'yoriy-huquqiy usulini ishlab chiqish.

YIning ayrim mamlakatlarida davlat buyurtmasining ma'lum qismi, alohida olingan tovar yetkazib beruvchilar uchun, xususan, kichik biznes vakillari uchun saqlab qolinadi. Ba'zan shu maqsadda yirik buyurtmalar kichik qismlarga bo'lingan holda joylashtiriladi. Bu mamlakatlarda davlat xaridi uchun xorijiy tovar yetkazib beruvchilarga belgilangan maxsus cheklovlar bilan birga, ancha bilvosita cheklovlar – bojxona to'lovlari va notarif cheklovlar (standartlar, guvohnomalar, litsenziyalar va

h.k.), ayrim holatlarda, to'g'ridan-to'g'ri cheklovlar belgilanadi. Bu amaliyot – xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda, JSTning faoliyati natijasida asta-sekin kamaymokda. YI mamlakatlarida davlat xaridini amalga oshirishda elektron vositalardan foydalanish, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va ekologik oqibatlariga sabab bo'lmaydigan jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, xorijiy biznes sub'ektlari xarid jarayonlarida ishtirok etganda milliy biznes vakillariga imtiyozlar mavjudligi ham alohida e'tiborga molik.

XULOSA

Tadqiqotlarni amalga oshirish davomida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldi:

1. Davlat xaridlarini amalga oshirishda ba'zi murakkabliklar yuzaga kelishini qayd etish lozim. Jumladan, xaridlar jarayonida yuzaga keluvchi risklar va ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Shartnoma munosabatlari to'laqonli ishlashi uchun risklarni e'tiborga olish lozim. Xususan, tomonlarning shartnoma shartlarini bajarishdan bosh tortishi, narxlarning sun'iy ortib ketishi, o'z vaqtida moliyalashtirmaslik holatlarining oldini olish muhimdir.

2. Elektron auksion savdolarini tahlil qilishning yana bir asosiy jihati davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanuvchi tashkilotlar, ya'ni institutsional birliklar bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishdir. Bu orqali aynan qaysi vazirlik yoki qo'mita tomonidan elektron auksion savdolar vositasida qancha miqdordagi tovar(ish, xizmat)lar xaridi amalga oshirilganligini bilib olish mumkin. Bu esa o'z navbatida, davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish uchun ishlab chiqiluvchi takliflarning yanada puxta bo'lishini ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni;
3. Vazirlar Mahkamasining «Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jaraenlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 37-son qarori 26.01.2021y.
4. O'roqov U. Davlat xaridlari tizimi: kecha va bugun. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 8-son, 2018 y.
5. Sheshukova T.G. Sistema gosudarstvennykh zakupok: ponyatie, vliyaniye na ekonomiku // Mejdunarodnyy buxgalterskiy uchet. – 2018. – T.
6. www.norma.uz.